“NAFRAT” KONSEPTINI IFODALOVCHI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Tursunova Ozoda Tirkashovna
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
+998979296344
Ozodatursunova10@gmail.com

Annotatsiya. Maqola “nafrat” konseptini ifodalovchi inglizcha paremiologik birliklarni leksik hamda semantik jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bunda ko‘rib chiqilgan maqollarga leksik asos bo‘lgan metaforik birliklarning kelib chiqishi lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Nafratni ifodalovchi maqollar bir nechta semantik guruhlarga ajratilgan.

Kalit so‘zlar. Paremiologik birlik, nafrat, konsept, maqol, o‘xshatish, donolik.

Qaysi xalqga tegishliligidan qat’iy nazar til o‘sha xalqni tasvirlash, tasniflash va o‘ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi eng yorqin vositalardan biri sanaladi. Aynan til unda so‘zlashuvchi kishilarning shaxsiy xususiyatlarini ochib bera oladi. Shu nuqtai nazardan tilni xalq madaniyat ko‘zgusi, deb atash mumkin, chunki unda xalqning turmush tarzi, mentaliteti, qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari, dunyoqarashi aks etadi. Ammo tilga bunday ta’rif berar ekanmiz xalq milliy mentalitetining aynan ushbu tilning leksikasi, frazeologiyasi, nutq odobi qoidalarida qanday voqelanishiga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi [1;2].

Zamonaviy tilshunoslik til va nutq hodisalarini lingvomadaniy tahlil qilishga urinadi, bunda dunyoning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi eng asosiy tushunchalar tahlilidan foydalanadi. Shu kabi tushunchalar qatoriga “nafrat” konseptini ham qo‘shish mumkin. Nafratga ta’rif berilganda albatta unga qarama-qarshi tushuncha – muhabbatdan foydalaniladi. Muhabbat - yonma-yon urayotgan yuraklar, bu hamjihatlik; nafrat - bu kelishmovchilik, metafizik tortishuv, nafrat predmeti bilan mutlaqo mos kelmaslikdir [2;33]. Ammo tilda muhabbat konsepti ko‘p bora ishlangan mavzu sanaladi. Shu bois nafrat konseptining tilda aks etish usullarini alohida ko‘rib chiqamiz.

Ingliz tilidagi *“hate”* (nafrat) konsepti *dislike, hostility, animosity, ill will* kabi otlar yoki *loathe, abhor, despite, abominate* kabi fe’llarlar bilan sinonim sanaladi. Ushbu so‘zlar ishtirokidagi paremiologik birliklarni shartli ravishda a) *he who hates*

is lost; hate is burning fire that may consume the one who hate; hate is like acid, it damages the vessel that contains it kabi nafrat oqibatda nafratlanayotgan shaxsni o‘zini badnom qiluvchi; b) *men always hate most what they envy most* kabi nafratga sabab bo‘luvchi hasad; c) *hate the sin, love the sinner* kabi gunohkorni oqlovchi, ayovchi; d) *we hate those whom we have wronge; men hate where they hurt; the hatred of the nearest relatives is the most bitter* kabi ko‘zni ko‘r qiluvchi nafrat haqidagi maqollar semantik guruhlariga ajratish mumkin.

Shuningdek, ingliz tilida *“hate”* (nafrat, nafratlanmoq) so‘zi bevosita ishtirok etmasada, shunday ma’noni beruvchi maqollar ham mavjud. Masalan, *“An eye for an eye makes the whole world blind”* da nafrat so‘zi ochiq tilga olinmagan bo‘lsada, u ko‘pincha adovatdan kelib chiquvchi qasos girdobi haqida ogohlantiradi. Maqol o‘ch olishga urinish besamar ekanini ta’kidlab, nafratni davom ettirish faqatgina kengroq ziddiyat va azob-uqubatlarga olib kelishini ko‘rsatadi. Bundan anglashiladiki, nafrat kishi ko‘zini ko‘r qiladi. Yana bir *“He who angers you conquers you”* maqolida kishi g‘azabini keltirayogan shaxs alal oqibat unga ega chiqishi aytilgan hamda nafrat va g‘azab kuchi yoritib beriladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, nafratga berilgan shaxs ko‘p hollarda sog‘lom fikrlay olmaydi va bu narsa boshqalarga uning his-tuyg‘ulari va harakatlari ustidan nazoratni ta’minlaydi. Bu maqol his-tuyg‘ularni tartibga solishning muhimligini va nafratning aqldan ustun kelishiga yo‘l qo‘yishning xavf-xatarlarini eslatadi. Shuningdek, nafratning yomon illat ekanligiga urg‘u beruvchi maqollardan yana biri *“Better a dinner of herbs than a stalled ox where hate is”* bo‘lib bunda nafratga to‘la joyda go‘sht yegandan, tinch joyda o‘t yegan ma’qul, degan dono fikr anglashiladi. Ko‘rinib turibdiki, nafrat konseptini anglatuvchi paremiologik birliklar tarkibida har doim ham aynan *“hate”* yoki unga sinonim bo‘lgan so‘z bo‘lishi shart emas. To‘g‘ri bular shu turdagi bir qator maqollar uchun leksik asos bo‘la oladi, ammo o‘xshatish ustiga qurilgan metaforik asos ham juda muhim sanaladi [5;40]. Nafratning yonayotgan olovga (burning fire), kuydiruvchi ishqorga (acid) o‘xshatilishi shu so‘zlar asosida bir qator paremiologik birliklarning yaratilishiga asos bo‘lgan. Demak, ta’kidlash mumkinki, metafora yangi tushunchaga (nafrat yoki nafratlanish ma’nosidagifrazeologik birlik - maqol) allaqachon anglangan va til birligi sifatida qabul qilingan tushuncha (olov, ishqor) orqali qarash imkonini beradi.

Nafratni aks ettiruvchi maqollar insoniyatning tarixi, tashvishlari va jamiyatdagi adovatlari haqida tanqidiy, bo‘rttirilmagan tushuncha beradi, chunki barcha maqollar an’anaviy ravishda xalq donoligi, ba’zan esa tarixan shakllangan stereotiplar mahsuli hisoblanadi. Maqollarning jamiyatda bajaradigan asosiy vazifalari ko‘p martalab turli jihatlar, jumladan, etnografik, adabiyotshunoslik,

folklor, lingvistik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Shuni ta’kidlash mumkinki, ijtimoiy muloqotda, hatto bizning zamonaviy davrimiz va jamiyatimizda ham ularning o‘rnini bosuvchi narsa yo‘q, ular insoniyat tafakkurida shunday an’anaviy ravishda takrorlanadi va ularning kata qismi keyingi avlodlar tomonidan kundalik hayotda qayta-qayta foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbek xalq maqollari «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005.- 257 b.

2. Ортега-и-Гассет Х. Эстетика. Философия культуры. М., 1991.- 588 с.

3. František Čermák Lexical and semanttic aspects of proverbs. Published by Charles University in Prague, Karolinum Press. 2019. - 243 p.

4. Speake J., Oxford dictionary of proverbs. Oxford University Press. 2015. – 404 p.

5. Terrence H., Metaphor. Routledge.2018. - 115 p